

---

## Bayram shodiyonalari ta'lim muassasalarila ham ko'tarinki ruhda o'tdi

Farg'ona shahar xalq ta'limi bo'limi tasarrufidagi 9-o'rta ta'lim maktabida "Assalom, Navro'z" nomli madaniy tadbir bo'lib o'tdi.

Maktab hududi bahoriy bezaklar bilan bayramona bezatildi. Milliy taomlar, milliy kiyimlar, o'quvchilar tomonidan tayyorlangan ijodiy ishlar tanlovi e'lon qilindi. Hakamlar hay'ati tomonidan g'olib sinflar aniqlandi.

O'quvchilar milliy kiyimlarda raqslar, she'r va qo'shiqlar tayyorladilar. Ayniqsa, milliy urf-odatlarimizdan kelin salom tadbiri barchaga bahoriy kayfiyat ulashdi.

Farg'ona shahar hokimligi Axborot xizmati

2023-03-23 14:07:27